

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 RAQAMLI ILMY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

RAXIMOVA SHAXNOZA RAXIMOVNA

**KOLUM MAKKENN PROZASIDA TARIXIY MOJAROLAR VA SHAXSIY
TAJRIBA RUHIY TRAVMA TRIGGERI SIFATIDA**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим
наукам
The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

Raximova Shaxnoza Raximovna

Kolum Makkenn prozasida tarixiy mojarolar va shaxsiy tajriba ruhiy jarohatlar triggeri sifatida 3

Рахимова Шахноза Рахимовна

Исторические конфликты и опыт как триггер личностных травм в прозе Колума Маккэнна..... 19

Rakhimova Shakhnoza Rakhimovna

Historical Conflicts and Experience as Triggers of Personal Trauma in the Prose of Colum McCann..... 37

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 41

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 RAQAMLI ILMY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

RAXIMOVA SHAXNOZA RAXIMOVNA

**KOLUM MAKKENN PROZASIDA TARIXIY MOJAROLAR VA SHAXSIY
TAJRIBA RUHIY TRAVMA TRIGGERI SIFATIDA**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2025.4.PhD/Fil6746 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Niyazova Moxichehra Xayatovna**
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar: **Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna**
filologiya fanlari doktori, professor

Xamdamova Sitora Baxshilloevna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Samarqand davlat chet tillar instituti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil " 23 " iyun soat 11:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro sh., M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0365) 221-29-14; faks: (0365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (927 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil " 9 " iyun kuni tarqatildi.
(2026-yil " 9 " iyun dagi 26-17 - raqamli reyestr bayonnomasi.)



D.I.Xodjayeva
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

O.O.Bobokalonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kотиби, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

O.M.Fayzulloyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotida postmodernizm XX asrning ikkinchi yarmida shakllangan muhim adabiy oqimlardan biri bo‘lib, u badiiy tafakkur va san‘at taraqqiyotiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. Postmodern adabiyotda introspeksiya, ya‘ni qahramonlarning ichki olami, ruhiy kechinmalari va psixologik holatini chuqur tasvirlashga; modernizmga xos bo‘lgan badiiy usullar – ong oqimi, ichki monolog, retrospeksiya kabi tasvir vositalariga qiziqish yanada kuchayadi. Shu nuqtai nazardan, postmodern romanlarni o‘rganish, ularning o‘ziga xos poetik xususiyatlarini aniqlash hamda ushbu oqimga mansub badiiy asarlarni travma nazariyasi va tarixiy mojarolar kontekstida tadqiq etish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv insoniyat ongida yuz bergan o‘zgarishlarni, tarixiy va psixologik omillar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni hamda ularning fanlararo aloqalarini ilmiy jihatdan talqin qilish imkonini beradi.

Dunyo adabiyotshunosligida matnni tarixiy travma prizmasi orqali talqin qilishga yo‘naltirilgan yangi nazariy konsepsiyalar shakllandi. Post-xotira, trigger, psixologik travma, vikariya (o‘rinbosar) travma kabi tushunchalar XX–XXI asr falokatlari – Ikkinchi jahon urushi, Sovuq urush, Vetnam urushi, Shimoliy Irlandiyadagi mojarolar, Holokost, tizimli diskriminatsiya, Yaqin Sharqdagi ziddiyatlar, jumladan Falastin–Isroil qarama-qarshiligi kabi tarixiy fojealar natijasida yuzaga kelgan adabiyotni talqin qilishda muhim nazariy kategoriyalar sifatida qo‘llanilmoqda. Xususan, amerikalik yozuvchi Kolum Makkenn prozasida tarixiy mojarolar va shaxsiy tajriba o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlik alohida badiiy talqin etiladi. Uning asarlarida ruhiy jarohatlarning shakllanishi, travmatik xotiraning saqlanishi hamda ularning avloddan-avlodga o‘tuvchi “trigger” sifatidagi funksiyasi muhim badiiy motiv sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan, yozuvchi asarlarida tarixiy mojarolarni individual kechinmalar, ruhiy parchalanish, travmatik xotira va tiklanish strategiyalari prizmasida o‘rganish nafaqat zamonaviy adabiy jarayonlarni chuqurroq anglashga, balki travma narrativlarining lingvopoetik mexanizmlarini ochib berishga ham xizmat qiladi.

Mustaqillik yillarida adabiyotga hamda yosh avlodni milliy va jahon klassikasi namunalarida tarbiyalash masalasiga alohida e‘tibor qaratildi va bu yo‘nalish ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Hozirgi kunda o‘zbek adabiyotini jahon madaniy makoniga olib chiqish, shuningdek, xorijiy adabiyot namunalarini o‘zbek tiliga tarjima qilish hamda o‘rganishga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganidek: “Adabiyot xalqning yuragi, elning ma‘naviyati ko‘zgidir. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo‘l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta‘sirchan kuchidan foydalanish zarur”¹. Badiiy asarlarni o‘rganish hanuzgacha yosh avlod tarbiyasining muhim tarkibiy qismi bo‘lib qolmoqda. Adabiyot xalqning madaniyati va tarixini anglashga vosita bo‘lib xizmat qiladi, o‘quvchida bag‘rikenglik, hamdardlik va o‘zaro tushunishni shakllantirishga ko‘maklashadi. Shu nuqtai nazardan amerikalik yozuvchi Kolum Makkennning ijodi alohida ahamiyatga ega. Uning asarlari zamonaviy nasrning yorqin namunasi bo‘lib,

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev, “Toshkent – Vatanimizning oltin ostonasi tobora chiroy ochmoqda”// “Xalq so‘zi” gazetasi, 2020 yil 21 may, №106 (7608)

bugungi jamiyatdagi dolzarb muammolar, ijtimoiy ziddiyatlar va davrning asosiy qadriyatlarini aks ettiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 19 maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish choratadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli qator me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida postmodernizm, uning o‘ziga xos xususiyatlari va oqimga aloqador badiiy asarlarini travma nazariyasi va tarixiy mojarolar nuqtayi nazaridan o‘rganishga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan va hozir ham izlanishlar davom ettirilmoqda. Ushbu yo‘nalishda ishlayotgan yetakchi tadqiqotchilar qatorida F.Jeymison, X.Uayt, S.Girxartning ilmiy izlanishlari,² shuningdek, K. Karut, M.Xirsh, M.Lekki, G.Xartman, J.Rinker, J.Loulerning fundamental ishlari³ muhim sanalib, ular tarixiy jarayonlarning personajlar ruhiyati va roman strukturasi ta‘sirini asoslab berganlar. Kolum Makkenn ijodini o‘rgangan tadqiqotchilar orasida E.Flennari, K.Samorano-L’yena, A.Mitrea, S.Singer, A.Taker, M.Mianovskiylarning ishlari⁴ ajralib turadi.

² Jameson F. *The Political Unconscious: Narrative as a Socially Symbolic Act*. Ithaca, New York: Cornell University Press, 1994. – 350 p.; White, Hayden V. *Metahistory: The Historical Imagination in Nineteenth-Century Europe*. Baltimore: Johns Hopkins University Press, 1973. – 428 p.;

³Lackey M. *Biofiction. An Introduction*. New York, London: Routledge, 2022. – 185 p.; Caruth C. *Unclaimed Experience: Trauma, Narrative, and History*. Baltimore: Johns Hopkins University Press, 1996. – 156 p.; Hirsch M. *The Generation of Postmemory // Poetics Today*. Porter Institute for Poetics and Semiotics, 2008. Vol. 29, № 1. – P. 103–128. DOI: 10.1215/03335372-2007-019.; Hartman G. *Trauma Within the Limits of Literature // European Journal of English Studies*. Taylor & Francis, 2003. Vol. 7, № 3. – P. 257–274. DOI: 10.1076/ejes.7.3.257.27984.; Rinker J.; Lawler J. *Trauma as a Collective Disease and Root Cause of Protracted Social Conflict // Peace and Conflict: Journal of Peace Psychology*. American Psychological Association, 2018. Vol. 24, № 2. – P. 150-164. DOI: 10.1037/pac0000311.

⁴Flannery E. *Introduction Colum McCann and the Aesthetics of Redemption*. Irish Academic Press, 2011. – 20 p.; Flannery E. *Internationalizing 9/11: Hope and Redemption in Nadeem Aslam’s The Wasted Vigil (2008) and Colum McCann’s Let the Great World Spin. (2009) // English: Journal of the English Association*. Oxford University Press, 2013. Vol. 62, № 238. – P. 294– 315.; Zamorano L. *From Exilic to Mobile Identities: Colum McCann’s Let the Great World Spin and the Cosmopolitanisation of Irish Reality // Irish University Review*. Irish University Press, 2016. Vol. 46, № 1. – P. 109–123.; Mitrea A. *Representations of Pre- and Post-9/11 New York City in Colum McCann’s Let the*

Ular yozuvchi nasriga xos uslubiy va g'oyaviy jihatlarni tahlil qilib, o'n birinchi sentyabr fojiasi hamda Shimoliy Irlandiya mojarosi kabi tarixiy hodisalarga alohida e'tibor qaratganlar.

Shuningdek, travma nazariyasini o'rganishga bag'ishlangan rus olimlarining ishlari⁵ ham diqqatga sazovor. O.V.Xallizev, Z.Beberashvili, B.I.Kolonitskiy, V.B.Aksenov, A.D.Kumankov, A.A.Fokin, O.Zashirinskaya, O.Kuznetsovaning tadqiqotlarida travma psixologiyasi, xotira va shaxsiy o'zlik masalalarini ko'rib chiqadilar.

O'zbek olimlari orasida esa travma nazariyasi deyarli o'rganilmagan, faqatgina mavzuga yaqin psixologizm, tarixiy roman va biofikshn, ruhiy holatlar bilan bog'liq masalalar D.Quronov, G.Murodov, F. Mo'minov, F.Xajiyevalarning ishlarida oydinlantirilganligini kuzatish mumkin.⁶

Postmodernizm, travma nazariyasi va tarixiy xotira bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilganiga qaramay, Kolum Makkenning "TransAtlantika", "Ajib dunyo aylanaversin" va "Apeyrogon" romanlari ilk bor travma nazariyasi nuqtayi nazaridan hamda tarixiy mojarolarning travmatik tajriba shakllanishiga ta'siri kontekstida tahlil qilinmoqda. Bundan tashqari, tadqiqot doirasida F.Jeymisonning "siyosiy ongsizlik" konsepsiyasi va X.Uaytning meta-tarix nazariyasini ilk bor birlashtirishirilgan. Bunday yondashuv tarixning personajlarga va badiiy voqealar strukturasi ko'rsatadigan ta'sirini chuqurroq tadqiq etish imkonini beradi. Tadqiqotda intermediyaviylik, trigger va post-xotira artefaktlari kabi tushunchalar ham ko'rib chiqilib, travmatik tajribani tasvirlash va uzatish jarayonidagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, travma kechishi jarayonida gender, madaniy, diniy va irqiy omillarning o'ziga xos jihatlari ham qo'shimcha ravishda tahlil qilingan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Adabiyotshunoslik va tarjimashunoslikning dolzarb muammolari: adabiy jarayon, qiyosiy adabiyotshunoslik, uslubshunoslik va tilshunoslik masalalari" ilmiy tadqiqot ishlari rejasida bajarilgan.

Great World Spin // East-West Cultural Passage. – 2021. – Vol. 21, № 2. – С. 87–104.; Tucker, Amanda. "Our Story Is Everywhere": Colum McCann and Irish Multiculturalism // Irish University Review. Irish University Press, 2010. Vol. 40, № 2. – P. 107–128.; Mianowski M. The Cottage by the Lough in Colum McCann's TransAtlantic: Between Finite and Infinite // Lifeworlds: Space, Place and Irish Culture. Edited by Cronin N. and Collins T. Cork: Cork University Press, 2018. – P. 2-21.; Singer S. The Slow Demise of Modernism, Aleatory Keepsakes, '70s Trauma and Looking through the Glass Darkly in Colum McCann's Let the Great World Spin // Image & Narrative. University of Guelph, 2013. Vol. 13, № 4. – P. 206–220.

⁵ Халлисте О. В. Роль исторической памяти в «Защитном» этническом конфликте: актуализация травмы социальной идентичности // Труды СПбГИК. Санкт Петербург, 2015. – С. 21-31; Беберашвили З. и др. Травма, её природа и пути исцеления. Тбилиси, 2021. – 205 с.; Колоницкий Б., Аксенов В., Куманьков А., Фокин А. Война и память: социально-психологические механизмы формирования массового исторического сознания // Новое прошлое. Ростов-на-Дону: Южный федеральный университет, 2025. – С.206-256.; Заширинская О. Психические травмы в межличностных отношениях. Санкт Петербург, 2021. – 172 с; Кузнецова О. Теневая сторона эмпатии: взгляд на викарную травму // Академия профессионального потенциала, 2021. URL: <https://aipp.education/articles/tenevaya-storona-empatii-vzglyad-na-vikarnuyu-travmu/>

⁶ Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшunoslik lug'ati. Тошкент, 2013. – Б. 254.; Муродов Ф. Микёс ва қиёс. Тошкент: Фан, 2009. – 72 б.; Муминов Ф. Валюта Власти. Ташкент, 2023. – 600с.; Хажиева Ф.М. «Америка постмодерн адабиёттида биографик роман поэтикаси (Ж.Парини, М.Каннингхем ва Л.Лалами асарлари мисолида)». Филол. фан. док...диссертация. Бухоро, 2022. – 274 б.

Tadqiqotning maqsadi Kolum Makkenn prozasida tarixiy mojarolar va shaxsiy tajriba ruhiy jarohatlar triggeri sifatidagi funksiyasini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

postmodernizm, travma, post-xotira va zamonaviy badiiy nasrdagi triggerlar sohasidagi ilmiy qarashlar va yondashuvlarni tahlil qilish;

adabiyotda travmatik tajribani etkazish usullarini hamda travmaning badiiy asar tuzilmasi va uslubiga ta'sirini ochib berish;

tarixiy mojarolarning travmatik tajriba shakllanishiga ta'sirini o'rganish va uni Kolum Makkenn romanlarida qanday tasvirlanishini tahlil qilish;

fotosuratlar, maktublar, metaforalar va vizual obrazlar kabi badiiy artefaktlarning trigger sifatida travma xotirasini faollashtirishdagi rolini aniqlash;

travma kechishi va yetkazish jarayonida erkak va ayol personajlarning vazifalarini, shuningdek, ular madaniy post-xotira shakllanishidagi o'rmini aniqlash;

Kolum Makkenn nasrida travmaning latentligi, tsiklikligi va so'zsiz qolgan jihatlari namoyon bo'lishining o'ziga xosligini chog'ishtirma-tipologik tahlil qilish.

Tadqiqotning obykti sifatida Kolum Makkenn "TransAtlantika", "Ajob dunyo aylanaversin" va "Apeyrogon" romanlari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti Kolum Makkenn prozasida tarixiy mojarolar va shaxsiy tajriba ruhiy jarohatlar triggeri sifatidagi funksiyasi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida stilistik, kontekstual, madaniy-tarixiy, psixanalitik, germeneytik, qiyosiy, pragmatik va narratologik tahlili usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Kolum Makkenn "Apeyrogon", "TransAtlantika" va "Ajob dunyo aylanaversin" romanlarida shaxsiy travmalarni shakllantiruvchi asosiy triggerlar sifatida Holokost, terrorizm, qullik, bosqin va fuqarolar urushi kabi tarixiy mojarolarning badiiy ahamiyati, asarlarda uydirma va tarixiy qahramonlar misolida kollektiv tarixiy xotira fonida travmatik tajriba shakllanish mexanizmi ustivorligi aniqlangan;

Kolum Makkenn asarlarida post-xotira va vikariya travmasining xususiyatlari fotosuratlar, tovushlar, maktublar, kiyim-kechak va madaniy obrazlar kabi badiiy elementlar latent xotiralarni faollashtiruvchi trigger sifatida ishlatilgani, travmani ifodalash shakllari sifatida takror, fragmentatsiya, xronotopik beqarorlik va intermediyaviylik kabi omillar negizida shakllanishi asoslangan;

Kolum Makkenn asarlarida bayon strukturasi travmatik mazmun bilan bog'liqligi siklik vaqt, lirik chekinishlar, intermediyalar va meta-tarixlar orqali namoyon bo'lishi K.Karut, M.Xirsh, F.Jeymison va X.Uaytning postmodern tasvir va tarixni narativ sifatida talqin qilish nazariyalariga muvofiqligi, travmatik mazmun va matn shaklini o'zgartirish o'rtasidagi bog'liqlik asosida namoyon bo'lishi isbotlangan;

biografik asar qahramonlari travma tashuvchisi sifatidagi roli, erkak va ayol qahramonlar travmatik tajribani harakat, sukut, vizual ramzlar yoki matn orqali turlicha saqlashi va uzatishi, empatiya/boshqalar dardini his qilish va tinglash orqali o'z travmasini yuzaga chiqishi mumkinligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari natijalari quyidagilardan iborat:

nazariy yondashuvlar (K. Karut, M. Xirsh, X. Uayt, F. Jeymison) va ularning Makkening romanlariga tatbiqi travmaning badiiy tasvirlanish mexanizmini chuqurroq ochib berishga, hikoya siklikligi, latentligi va bo'laklarga ajralganligi, tuzilma takrorlari va ramziy triggerlar orqali ifodalanishi ochib berilgan;

post-xotira, vikariya travmasi va etika bilan tinglash adabiyot orqali kollektiv travmani qanday aks ettirishni tushunishga yordam berishi, Makkenn ijodida postmodern uslublar makro-mojarolarni yetkazish va tavsiflash vositasi, shuningdek, avlodlararo va madaniyatlararo muloqotni o'rnatish vositasi sifatida xizmat qilishi belgilab berilgan;

ish davomida aniqlangan badiiy matn tuzilmasi, tarixiy kontekst va xotira triggerlari o'rtasidagi bog'liqlik asosida xulosalar post-xotira va vikariya travmasini o'rganish bo'yicha kelgusidagi tadqiqotlar uchun asos bo'la olishi, shuningdek, filologiya va adabiyotshunoslik bo'yicha mutaxassislarni tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalarida darsliklar va o'quv qo'llanmalarini ishlab chiqishda qo'llanilishi mumkinligi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qo'llanilgan usullar va vositalarning zamonaviy adabiyotshunoslik nazariyalarga mos kelishi, tadqiqot materiallarining ishonchli manbalardan olinishi, muammoning aniq belgilanishi, OAK ro'yxatiga kiritilgan ixtisoslashgan va xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan maqolalarga tayanganligi, xulosalarning mavzu bo'yicha asoslanganligi, shuningdek, stilistik, kontekstual, madaniy-tarixiy, psixoanalitik, germeneytik, qiyosiy, pragmatik va narratologik tahlil usullari orqali xulosalarning tasdiqlanishi, ilmiy gipotezalar va xulosalarning amaliyotga tatbiq etilishi hamda olingan natijalarning malakali idoralar tomonidan tasdiqlanishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ular XXI asr ingliz tilidagi adabiyotida tarixiy mojarolarni badiiy talqin qilishni o'rganishda manba bo'la olishi, travmaning matn tuzilmasi va uslubi orqali uzatilish mexanizmlarini aniqlash, badiiy asarni tahlil qilishda post-xotira, vikariya travmasi va etik tinglashning rolini belgilash, shuningdek, kollektiv xotira va zamonaviy nasrdagi postmodern uslublarni yanada chuqur o'rganish uchun metodologik yondashuvlarni ishlab chiqishda qo'llanilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ular filologiya yo'nalishida mutaxassis tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalarida maxsus fanlarni o'qitishda qo'llanilishi, jumladan, adabiyotshunoslik, dunyo xalqlari adabiyoti, o'rganilayotgan til mamlakatlari adabiyoti, madaniyatlararo kommunikatsiya kabi fanlar, shuningdek, "Adabiyotshunoslikka kirish", "Amerika adabiyoti va madaniyati", "Jahon adabiyoti", "Adabiy yo'nalishlar evolyutsiyasi" kabi kurslar doirasida tadbiq etilishi bilan birga, natijalar darsliklar, o'quv va o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kolum Makkenn prozasida tarixiy mojarolar va shaxsiy tajriba ruhiy jarohatlar triggeri sifatida ta'sirini o'rganishga doir ishlab chiqilgan metodik va amaliy tavsiyalar asosida:

Kolum Makkening "Apeyrogon", "TransAtlantika" va "Ajib dunyo aylanaversin" romanlarida shaxsiy travmalarni shakllantiruvchi asosiy triggerlar

sifatida Holokost, terrorizm, qullik, bosqin va fuqarolar urushi kabi tarixiy mojarolarning badiiy ahamiyati, asarlarda uydirma va tarixiy qahramonlar misolida kollektiv tarixiy xotira fonida travmatik tajriba shakllanish mexanizmi ustivorligiga oid ilmiy va nazariy xulosalardan Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida 2024-2025 yillarda bajarilgan IL-7823051524 - sonli “Paratranslator – parallel korpusga asoslangan elektron kontekstologik tarjima lug‘at platformasini yaratish” fundamental loyihasida foydalanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining 2025-yil 3-noyabrdagi №04/11-26524-son ma‘lumotnomasi). Natijada, zamonaviy adabiyotshunoslik, postmodernizm va uning tuzilma-uslubiy xususiyatlari bo‘yicha materiallarning mazmuni sezilarli darajada yaxshilanishiga erishilgan;

Kolum Makkening asarlarida post-xotira va vikariya travmasining xususiyatlari fotosuratlar, tovushlar, maktublar, kiyim-kechak va madaniy obrazlar kabi badiiy elementlar latent xotiralarni faollashtiruvchi trigger sifatida ishlatilgani, travmani ifodalash shakllari sifatida takror, fragmentatsiya, xronotopik beqarorlik va intermediyaviylik kabi omillar negizida shakllanishiga oid nazariy xulosalardan Buxoro davlat universiteti va Bolgariyaning Sofiya universiteti hamkorligida amalga oshirilgan “KA-171 akademik almashinuv loyihasi” xalqaro loyihasida foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2025-yil 3-sentabrdagi №06/5191-son ma‘lumotnomasi). Natijada zamonaviy jahon adabiyoti tendensiyalari bo‘yicha ilmiy adabiyot bazasi boyitilgan va badiiy narativ bilan tarixiy xotira o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik yanada chuqurroq talqin qilinishiga erishilgan;

Kolum Makkenn asarlarida bayon strukturasiyning travmatik mazmun bilan bog‘liqligi siklik vaqt, lirik chekinishlar, intermediyalar va meta-tarixlar orqali namoyon bo‘lishi K.Karut, M.Xirsh, F.Jeymison va X.Uaytning postmodern tasvir va tarixni narativ sifatida talqin qilish nazariyalariga muvofiqligi, travmatik mazmun va matn shaklini o‘zgartirish o‘rtasidagi bog‘liqlik asosida namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq xulosa va natijalardan Buxoro viloyati teleradiokompaniyasida “Assalom Buxoro”, “Dolzarb mavzu” ko‘rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2025-yil 08-sentyabrdagi №01-09-212-son ma‘lumotnomasi). Natijada ushbu teleko‘rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni sezilarli darajada yaxshilanishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy-amaliy konferensiyada muhokama qilingan, ulardan 4 tasi xalqaro va 2 tasi respublika miqyosidagi konferensiyalar bo‘lgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusiga doir 17 ta ilmiy maqola nashr etilgan, shundan 11 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini nashr etish uchun tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda chop etilgan; ulardan 7 tasi respublika, 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 151 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o‘rganilganlik

darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, ishonchliligi, amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, e‘lon qilingan ishlar va tadqiqot tuzilishi ko‘rsatilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Kolum Makkenn nasri uslubi va tematikasi tarixiy travma hamda mojarolarni tahlil qilishning asosi sifatida”** deb nomlanadi va uch qismdan iborat. Ushbu bobning birinchi paragrafida yozuvchi Kolum Makkenn, uning hayoti va ijodi haqida umumiy ma‘lumotlar, shuningdek, jahon adabiyotshunosligida uning ijodi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar haqida sinopsis berilgan. Bu qismda shuningdek, muallif asarlariga xos umumiy jihatlar, uslubiy o‘ziga xoslik va mavzular ko‘lami yoritilgan. So‘nggi paragrafda badiiy asarlarni tahlil qilishda tarix va tarixiy kontekst kabi tushunchalar, shuningdek, travma va uning adabiyotdagi tasviri, post-xotira, travmatik tajriba hamda triggerga oid nazariy qarashlar bayon etiladi.

K.Makkenn ijodining mavzuviy o‘ziga xosligi uning romanlarini tarix nuqtayi nazaridan, xususan, tarixiy mojarolar asar va qahramonlarning travmatik tajribasiga ta‘sir ko‘rsatishini tahlil qilish uchun qulay materialga aylantiradi. Ijodkor romanlarini talqin qilishda Frederik Jeymisonning nazariyasi va ilmiy ishlanmalariga, xususan, uning 1981 yilda chop etilgan *“Siyosiy ongsizlik: Narrativ ijtimoiy-ramziy akt sifatida”* (*“The Political Unconscious: Narrative as a Socially Symbolic Act”*) nomli kitobiga tayanildi. Olim o‘z asarini uning nazariyasini tushunishda kalit bo‘la oladigan jumla bilan boshlaydi: *“Har doim tarixlashtiring!”*⁷ Badiiy asarlarni tushunishda tarixiylashtirish zarurati universal yondashuv bo‘lib, har qanday davr uchun dolzarb ekanligini anglatadi.

Shuningdek, Jeymison matnni to‘liq tahlil qilish va talqin etish uchun uni uch bosqichli talqin⁸ orqali ko‘rib chiqish zarurligini ta‘kidlaydi. Bu bosqichlar quyidagilardan iborat:

1. Siyosiy gorizont. Ushbu bosqichda matn o‘z davriga xos real muammolarni ramziy tarzda hal etuvchi ramziy akt sifatida talqin qilinadi.
2. Ijtimoiy gorizont. Bu jarayonda badiiy asar ma‘lum bir mafkuraviy holat va ijtimoiy ziddiyatlar kontekstida ko‘rib chiqiladi.
3. Tarixiy gorizont. Ushbu eng keng qamrovli bosqichda insoniyat tarixini umumiy tarzda o‘z ichiga oladi va badiiy matnga tarixiy jarayonlarning aks etishi sifatida qaraydi.

Ushbu tadqiqot ishida qo‘llanilgan yana bir muhim nazariya – Xayden Uaytning *“meta-tarix”* nazariyasidir. Bu nazariya uning *“Metatarix: XIX asr Yevropasida tarixiy tasavvur”* (1973) nomli kitobida bayon etilgan. Uaytning fikriga ko‘ra, tarixiy narrativlar – bu obyektiv voqelikning oddiy tasviri emas, balki muallifning subyektiv talqinini ifodalovchi konstruksiyalardir.

X.Uayt nazariyasining asosiy tushunchalaridan biri – *“emplotment”* (syujetlashtirish) bo‘lib, u tarixiy voqealarning ma‘lum bir syujetga aylantirilishi va aniq shaklga keltirilishi jarayonini anglatadi. X.Uayt syujetning to‘rtta asosiy arxetip

⁷ Jameson F. *The Political Unconscious: Narrative as a Socially Symbolic Act*. Ithaca, New York: Cornell University Press, 1994. – P. 9.

⁸ *Ibid.*, 56.

turini farqlaydi: roman, tragediya, komediya va satira⁹.

Tarixiy matnlarni tahlil qilish va talqin etishda Uayt trop nazariyasidan foydalanadi va to'rtta asosiy tropni ajratib ko'rsatadi: metafora, metonimiya, sinekdoxa va istehzo (ironiya)¹⁰. Olimning fikricha, muallif tomonidan ma'lum bir tropning qo'llanishi matnning o'quvchi tomonidan qabul qilinishiga ta'sir qiladi, muayyan hissiy fon yaratadi va o'qishga xos ta'sir kuchini shakllantiradi.

Shubhasiz, badiiy matnni va uning implitsit mazmunini tushunishda tarixiy, siyosiy va madaniy kontekst muhim rol o'ynaydi. Bu omillar ko'pincha muayyan asarning yaratilishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Biroq, bizning fikrimizcha, ushbu voqealarning qahramonlarga, ularning kechinmalariga ta'siri hamda ular orqali yanada kengroq travmatik tajribalar – real hayotda odamlar boshidan kechirgan ruhiy jarohatlarning ramziy tarzda ifodalanishiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Ushbu yo'nalishdagi yetakchi tadqiqotchilardan biri sifatida Keyti Karut tan olinadi. U o'zining "E'lon qilinmagan tajriba: travma, hikoya va tarix" (1996) nomli monografiyasida travmaning tabiatini, uning xotira va eslash jarayoniga ta'sirini, shuningdek, travmatik xotiralar qanday qilib tushlar va keskin retrospeksiya (flashbeklar) orqali namoyon bo'lishini tahlil qiladi. K.Karutning asosiy g'oyalaridan biri shundan iboratki, travmatik tajriba darhol anglanmaydi – u kechikib, vaqt o'tgach namoyon bo'ladi. Karutning fikricha, travma – bu ruhdagi jarohat, psixikaning o'zgarishi bo'lib, bunday sharoitda aytilgan hikoyalar aslida "haqiqat yoki endi biz uchun tushunib bo'lmaydigan voqelik haqida qichqirayotgan yara hikoyasidan boshqa narsa emas"¹¹.

Travma masalalariga oid muhim tadqiqotlar qatoriga Marianna Hirshning ishlarini ham kiritish mumkin. Olima "Post-xotira avlodi" nomli asarida travmatik tajribani bevosita boshdan kechirmagan keyingi avlodlarga yetib borishini o'rganadi. U "post-xotira" tushunchasini ilmiy muomalaga kiritadi va "travmani boshidan kechirgan odamlarning farzandlari – ikkinchi avlod vakillarining o'zlari guvoh bo'lmagan, ammo ularning ongiga va dunyoqarashiga chuqur ta'sir ko'rsatgan voqealar haqidagi xotiralari"¹² sifatida ta'riflaydi.

M.Hirsh shuningdek "xotirani asrash" (guardianhip) va "o'tmish bilan jonli aloqadorlik" kabi tushunchalarni ham muomalaga kiritadi. Uning nazariyasining yangiligi – post-xotirani yetkazishda fotosuratlarining o'rnidir. Olimning fikricha, fotosuratlar o'tmish haqidagi xotirani saqlab qolishga yordam beradi hamda unutilgan dunyo bilan bevosita aloqadorlik illuziyasini yaratadi. Marianna Hirsh post-xotira uzatilishining ikki shaklini ajratadi: oilaviy post-xotira – travma haqidagi xotiralar oila doirasida avloddan-avlodga o'tadi va affiliativ post-xotira – madaniyat, san'at va jamiyat orqali xotira keying avlodlarga o'tadi.

Bundan tashqari, dissertatsiyada qahramonlar boshidan kechirgan tarixiy mojaro va voqealar ularning shaxsiy travmalari va travmatik xotiralarini faollashtiruvchi

⁹ White H. *Metahistory: The Historical Imagination in Nineteenth-Century Europe*. Baltimore: Johns Hopkins University Press, 1973. – P. 7.

¹⁰ *Ibid.*, 31.

¹¹ Caruth C. *Introduction. // Unclaimed Experience: Trauma, Narrative, and History*. Baltimore: Johns Hopkins University Press, 1996. – P. 4.

¹² Hirsch M. *The Generation of Postmemory // Poetics Today*. Porter Institute for Poetics and Semiotics, 2008. Vol. 29, № 1 – P. 104.

triggerlar sifatida ko‘rib chiqiladi. Psixologik, psixoanalitik va terapevtik adabiyotlarda trigger “o‘tmishda sodir bo‘lgan salbiy hodisani eslatib, insonni qayta iztirobga soladigan yoki qo‘rqitadigan omil”¹³ sifatida ta‘riflanadi. Ya‘ni, trigger – bu og‘riqli xotira bilan bog‘liq kuchli hissiy reaksiyani keltirib chiqaradigan omil. Ularga ma‘lum bir voqea, fotosurat, odam, musiqa, hid, joy, so‘z yoki matnlar kiradi. Bunday omillar o‘tmishdagi travmatik tajribani qayta xotirlashga va uni yana bir bor boshdan kechirishga sabab bo‘ladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobiga **“Kolum Makkenn nasrida tarix va mafkura tasvirining talqin modellarini o‘rganish”** nomi ostida “TransAtlantika”, “Ajib dunyo aylanaversin” va “Apeirogon” romanlarini Frederik Jeymison va Xayden Uayt nazariyalari, shuningdek, siyosiy, ijtimoiy va tarixiy gorizont, syujetlashtirish (emplotment) va troplar nazariyasi kabi tushunchalar prizmasida talqin qilishga bag‘ishlangan.

Romanni tarixiy gorizont orqali talqin qilish, hikoyaning tuzilishini aniqlash va uning roman mavzu va g‘oyalarini tushunishga ta‘sirini ochib beradi. Ijtimoiy gorizont orqali talqin esa keng qamrovli mavzular ma‘lum ideologemalar orqali qanday yetkazilishini ko‘rsatadi; bu ideologemalar ma‘lum troplar va qahramonlar hayotidagi aniq epizodlarni tasvirlash orqali namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, siyosiy gorizont orqali talqin arxetipik syujet – ya‘ni syujetlashtirish (emplotment) – matnni ochib beradi va uni ramziy akt sifatida aks ettirishini aniq ko‘rsatadi.

K.Makkennning 2013 yilda nashr etilgan “TransAtlantika” romani adabiy tanqidchilar va o‘quvchilar orasida uning ko‘p qirrali ekanligi, chuqur ramziy mazmuni va tarixiy kontekstning shaxsiy kechinmalar bilan uyg‘unlashuvi sabab katta e‘tirofga sazovor bo‘ldi. Roman hikoya jihatidan fragmentar bo‘lib, uch qismdan iborat va 1845 yildan 2012 yilgacha bo‘lgan davrni qamrab oladi. Asargagi mavzular ko‘lami uning turlicha talqin va tahlil imkonini yaratadi. Biroq, bizning fikrimizcha, tarixiy va madaniy podtekst (implikatsiya) asarni dekodlashda asosiy omillar sifatida qaralishi lozim.

“TransAtlantika”da o‘quvchi ma‘lum bir qahramon orqali jamiyatdagi turli muammolar bilan tanishadi. Shulardan biri, erkinlik va yangi hayotga umid mavzusini amerikalik abolitsionist va qora tanlilar huquqlari uchun kurashgan Frederik Duglas obrazida ko‘rib chiqish mumkin. Shu bilan birga, “transatlantika” konsepsiyasi, bizning fikrimizcha, metafora sifatida syujet chiziqlarini birlashtiradi va bir vaqtning o‘zida romandagi o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi. Quyidagi sxemada romanning xronologik tuzilishini ko‘rib chiqish mumkin bo‘lib, markazda, ya‘ni asosiy pog‘onada, o‘zi “transatlantika” turishi e‘tiborga molikdir.

Duglas syujet chizig‘ini (emplotment) romantik deb hisoblash mumkin. Bu, Jeymisonning siyosiy gorizonti prizmasida qaralganda, Frederik Duglasning zamonaviy jamiyatdagi tarixiy va siyosiy ahamiyatini ochib beradi. Biroq romanda Duglas Irlandiyaga safar qilganida unga nisbatan aniq tanqid va kulgi namoyon bo‘ladi. Masalan, K.Makkenn adibni “rangli konkistador”, “janob-qul” va “amerikalik Orfey”¹⁴ sifatida istehzoli sifatlaydi. Bu masalani ijtimoiy gorizont doirasida ideologema sifatida talqin qilinadigan bo‘lsa, shaxsiy erkinlik va tenglik

¹³Trigger. Cambridge Dictionary. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/trigger>.

¹⁴ McCann C. TransAtlantic. New York: Random House, 2013. – P. 54.

sari yo‘lning qanchalik qiyin bo‘lganini aks ettiradi. Shu bilan birga, yuqoridagi istehzo bugungi kunda Amerikada mavjud bo‘lgan irqiy diskriminatsiya, tizimli irqchilik va rangli irq vakillariga nisbatan e‘tiborsizlik mavjudligini va ushbu muammolarga qarshi kurash davom etayotganligini ko‘rsatadi.

K.Makkenning “Ajib dunyo aylanaversin” romani nafaqat tuzilishi, balki uslubi, polifoniyligi va qahramonlar xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Roman xronotopi 1970-yillarning boshlarida Nyu-York shahri va uning atrofini qamrab oladi va AQShning turli ijtimoiy qatlamlaridagi odamlarning hayotini, muammolari va turmush tarzini tasvirlaydi.

Ushbu asarni tahlil qilishdagi asosiy elementlardan biri — intertekstualikdir. Misol sifatida muallif Jaloliddin Rumi she‘ridan bevosita iqtibosini olish mumkin: “Whosoever brought me here is going to have to take me home”¹⁵ (Meni bu yerga olib kelgan kishi meni uyga olib ketishi kerak). Ushbu satr fors tilidan Koelman Barks tarjimasini orqali g‘arbda keng tanilgan bo‘lsa-da, uning muallifi shubhali bo‘lib, apokrif (yani manbasi aniq emas) sifatida qaralishi mumkin. Chunki shunga o‘xshash ifodalar J.Milton, diniy kitoblar – Qur‘oni Karim va Bibliyada ham uchraydi. Shunga qaramay, Makkenn romanida ushbu bayt Rumiya tegishli sifatida keltiriladi va Bronksdan bo‘lgan diniy e‘tiqodsiz qora tanli Tilli ismli yengiltak ayol hikoyasining yadrosi – ma‘no markaziga aylanadi. Romanda Rumi misrasi ikki muhim funksiyani bajaradi. Birinchidan, uning she‘riyati Tilling ichki dunyosini ochib beradi, “buzuq ayol” tashqi ko‘rinishi ostida chuqur fikrlaydigan va his qila oladigan shaxs yashayotganini ko‘rsatadi. Ikkinchidan, Rumi she‘rlari Tilli uchun din, e‘tiqodga kirituvchi vosita va ruhiy uyg‘onish manbasi bo‘ladi. Ular orqali Tilli hayotini qayta anglaydi, aybini his qiladi va poklanishga intiladi. Rumi iqtibosi Uayt nazariyasiga ko‘ra metafora sifatida talqin qilinadi, u matnga mazmun beradi, Tilling to‘g‘ri yo‘lga qaytishini, aybini tan olishini aks ettiradi. Jeymisonning ijtimoiy gorizonti orqali bu metafora ideologema sifatida namoyon bo‘ladi va sinfiy tengsizlik, fohishalik (prostitutsiya) mavzusi, qaramlik hamda ruhiy o‘zgarish mavzularini ochib beradi.

Tahlil ostiga olingan yozuvchining uchinchi romani “Apeirogon” tarixiy aktivistlar – Falastinlik Bassam Aramin va Isroillik Rami Elxanan haqida bo‘lib, ular Isroil va Falastin o‘rtasidagi mojaroda qizlarini yo‘qotgan. Muallif romanda 1001 bobdan iborat murakkab tuzilma yaratadi, bu esa “Min bir kecha” asariga ishora bo‘lib, har bir bob bir so‘zdan tortib to butun tarixiy bo‘limlargacha farqlanadi. Uayt nazariyasi bo‘yicha romandagi markaziy metafora – apeirogon, ya‘ni cheksiz burchaklar soniga ega geometrik figura. Bu obraz turli nuqtai nazarlarning ko‘pligini ifodalaydi, har bir hikoya o‘ziga xos, ammo bir-biri bilan bog‘langan. Hikoya ikki spiral shaklida quriladi – Bassam va Rami taqdirleri, ular ayriliq dardi va bu dardni tushunish nuqtasida kesishadi. Bunday tuzilma R. Kaplanning “Semit va sharqona fikrlash modeli”¹⁶ga ham mos keladi, bunda fikr to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki parallel va aylanuvchi harakatlar orqali rivojlanadi. Makkenn struktura o‘xshashligini maqsadli qo‘llaydi: qahramonlar epizodlari, harakatlari va biografik tafsilotlarini qayta-qayta takrorlaydi, biroq o‘zgarishlar bilan. Bunday yondashuv doiraviy hikoya

¹⁵ McCann C. Let the Great World Spin. New York: Random House, 2009. – P. 62.

¹⁶ Kaplan R. Cultural Thought Patterns in Intercultural Education // Language Learning. Malden: Wiley, 1966. – Vol. 16. – P. 15.

